

---

## GULCHILIK XONADONLARDA TAKOMILLASHMOQDA

Toshloq tumani Furqat mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Go'yoxon Xakimova mana o'ttiz yildirki gulchilik bilan shug'ullanadi. Unga turmush o'rtog'i, farzandlari, kelinlari ko'makchi.

Mahalla fuqarolar yig'ini hokim yordamchisi Nodirjon Mo'minov tavsiyasi bilan 18 million imtiyozli kredit olish hisobiga yangi 1,5 sotixli issiqxona qurilib gullar turini yanada ko'payishiga erishilmoqda. Hozirda issiqxonada 50 dan ortiq gul turlari mavjud bo'lib ularning orasida noyoblari ham parvarishlanmoqda. Gulchilik orqali olingan daromaddan uylar tiklab, to'ylar qilgan qahramonimiz davlatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor va qo'llab-quvvatlashlardan mamnun.

-Yangi qurilgan issiqxona gullar parvarishi, ularni ko'paytirishimiz uchun qulaylik bo'ldi, - deydi G.Xakimova. - Imtiyozlarni bo'lgani yaxshi. Hunarmand xalqimizga ancha yordam bo'lyapti. Yaqinda bo'lib o'tgan Namangandagi 62-xalqaro gullar festivalida ishtirok etib parvarishlagan gullarimdan 20 million so'm daromad oldim. Bularning barchasida davlatimiz tomonidan berilayotgan imkoniyat va e'tiborning aksi mujassam.

2023-08-07 17:02:09